

ENERGETIKA VAZIRLIGI, "O'ZKIMYOSANOAT" AJ VA ACWA POWER O'RTASIDA YASHIL AMMIK ISHLAB CHIQRARISH BO'YICHA INVESTITSION HAMKORLIK TO'G'RISIDA BITIM IMZOLANDI

// 23 December 2022 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/energetika-vazirligi-uzkimyosanoat-aj-va-acwa-power-bitim-imzoladi>



Toshkent shahri mezbonlik qilayotgan O'zbekiston Respublikasi - Saudiya Arabistoni Podshohligi biznes-forumi doirasida 2022-yilning 23-dekabr kuni Energetika vazirligi, "O'zkimyosanoat" AJ va ACWA Power (Saudiya Arabistoni) o'rtasida yashil ammiak ishlab chiqarish bo'yicha investitsion hamkorlik to'g'risida "Asosiy Shartlar" (*Heads of Terms*) bitimi imzolandi. Unga ko'ra yashil ammiak ishlab chiqarish loyihasi 2 bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich - yashil vodorod loyihasi bo'lib, yiliga 3,0 ming tonna yashil vodorod ishlab chiqarish

quvvatiga ega bo`ladi. Loyiha qiymati esa 17,0 mln. AQSH dollarini tashkil etadi. Mazkur loyihani amalga oshirish doirasida "Maxam-Chirchiq" AJ zavodiga 20,0 MW quvvatli elektrolezyor uskunasi o`rnatiladi va vodorod ishlab chiqarishda tabiiy gaz o`rniga suvdan foydalaniladi.

Ikkinchi bosqich - yashil ammiak loyihasi bo`lib, yiliga 500,0 ming tonna yashil ammiak ishlab chiqarish ko`zlangan. Mazkur loyihani amalga oshirish maqsadida xorijiy hamkorlar bilan birgalikda iqtisodiy va texnik o`rganishlar olib boriladi. O`rganishlar ijobiy natija ko`rsatgan taqdirda, qiymati 4,0 mlrd AQSH dollari bo`lgan ushbu yirik investitsion loyihaga start beriladi.

Yuqorida sanab o`tilgan loyihalarni amalga oshirish va ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur elektr energiyasini ta`minlab berish maqsadida loyihalar doirasida Energetika vazirligi va ACWA Power ishtirokida alohida, shamol/quyosh elektr stansiyasi barpo etiladi. Natijada har yili qariyb 1,0 mlrd metr kub tabiiy gaz iqtisod qilinadi hamda mamlakatimizning kimyo sohasini dekarbonizatsiya qilinishida sezilarli natijalarga erishiladi.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati









